

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAHALLIY BYUDJET
DAROMADLARINI OSHIRISH YO'LLARI**

Z.I. Xakimov -Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti dotsenti

U.Sh.Yuldasheva – 70410506- “Davlat moliyaviy
nazorati va auditi” ta’lim yo’nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy byudjet daromadlar qismining tashkil topish elementlari va samaradorligini oshirish yo'llari tahlil etilgan. Xususan byudjet mablag'larini samarali ishlatilishi borasida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Byudjet, investitsiya, ishlab chiqarish, iqtisodiy barqarorlik, rentabellik, davlat tadbirkorligi.

Kirish. Jahonda budjet-soliq tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish bo'lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda mahalliy budjet daromadlar qismida yer, mulk va ko'chmas mulklardan olinadigan soliqlar asosiy ulushni tashkil qiladi. Ta'kidlash joizki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat budjeti daromadlari tarkibida mahalliy budjetlar daromadlari salmoqli ulushni egallaydi. Xususan, bu ko'rsatkich Yaponiyada o'ttiz foiz, Buyuk Britaniyada o'ttiz uch foiz, Avstriyada o'ttiz to'rt foiz, Fransiya o'ttiz sakkiz foiz, Portugaliya o'ttiz to'qqiz foiz, Norvegiya ellik sakkiz foiz, Luksemburgda oltmish foizni tashkil etadi. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda davlat moliyasini boshqarish sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda mahalliy budjet tizimi daromad manbalarini ilmiy asoslangan holda belgilash, soliqlar vositasida budjetlararo munosabatlarni tartibga solish, turli darajadagi budjetlar o'rtasida soliqlarni taqsimlash, budjet transfertlarini ajratishda hududlarning budjet bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.**

J.Yeshmurzayev iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy soliq va yig'implarni undirish mexanizmini takomillashtirishga, A.Mamanazarovning ilmiy ishi mahalliy budjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning ahamiyatini oshirish asalalariga bag'ishlanadi.

X. Qobulovning ilmiy-tadqiqot ishi hududiy iqtisodiyot va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish yo'nalishlariga qaratilgan.

Shuningdek, A.Xayriddinovning nomzodlik dissertatsiyasida mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari asoslab berilgan. U.O'roqovning falsafa doktori dissertatsiyasida mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishni takomillashtirish yo'llari taklif etilgan.

Shuningdek, N. Soatovalarning falsafa doktori dissertatsiyasida mahalliy budjetlar solikli daromad bazalarini mustahkamlash yo'llari ko'rib chiqilgan.

Tahlil

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohatlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida ularning hududlarini kompleks va mutanosib rivojlantirishni ta'minlash, mintaqalarning mavjud tabiiy xom ashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish hamda aholining turmush darajasi va faravonligini izchil oshirib borish, bundan tashqari, mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjet daromadlarini manbaini mustahkamlash yuzasidan olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlarni izchil davom ettirish hududlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'ringa egallaydi¹.

Mahalliy byudjet mablag'laridan samarali foydalanish borasidagi muammolar va ularning kelib chiqish sabablari to'g'risida gap ketar ekan, bu o'rinda faqat Surxondaryo viloyatida emas, balki butun respublikamiz bo'yicha amaliyotida anchadan buyon tarkib topgan va hamon yechimini tomilmasdan kelayotgan yana

¹ Meyliyev O.R. Soliqlar vositasida hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish: muammo va istiqbollari "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. 2019-yil № 2. 1-b.



bir muammo va uning kelib chiqish sabablari xususida alohida tuxtalib o'tish maqsadga muvofiq. Gap bu o'rinda, mamlakatimiz amaliyotida qat'iy tarkib topgan va faqat mahalliy byudjet xarajatlariga nisbatan emas, balki umuman olganda, davlat byudjeti xarajatlariga nisbatan tarkib topgan kamomad, o'zlashtirish va noqonuniy xarajatlar to'g'risida ketmoqda. Buning aynan shunday ekanligi Surxondaryo viloyati mahalliy byudjeti misolida amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijalari yuqorida yana bir marta tasdiqlandi. Shuning uchun buni byudjet, shu jumladan, mahalliy byudjetlar xarajatlarining samarali foydalanishning ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan muammolarining eng asosiylaridan biri sifatida e'tirof etish va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash o'ta muhim ahamiyatga egadir.

Mahalliy byudjetda qancha ko'p daromad bo'lsa, dolzarb bo'lgan ijtimoiy masalalarni shuncha tezkorlik bilan hal qilish mumkin, dedi davlatimiz rahbari. Qo'shimcha mablag'lar, jumladan, "Beshta tashabbus", "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Ichimlik suvi", "Har bir oila tadbirkor" kabi davlat dasturlarini joylarda tizimli amalga oshirish, xalqning daromadini ko'paytirish va hayotini yaxshilash uchun zarur bo'ladi².

Shuningdek, mahalliy byudjetlar mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy imkoniyatidir. Mahalliy byudjet daromadlari qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik ushbu hudud aholisi farovonligi yuqori bo'ladi. Hududlar iqtisodiyotini soliqlar vositasida rivojlantirish maqsadida mahalliy byudjetlarning soliq-byudjet vakolatlarini oshirish orqali mahalliy byudjet daromadlarini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, mahalliy hokimiyatlarining davlat boshqaruvidagi, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy boshqarishdagi rolini oshirish, hozirgi kunning asosiy masalalaridan biridir. Bunda respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o'rtasida daromadlar va xarajatlarning optimal qonuniy chegarasini yaratishga qaratilishi va hudud iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim.

Ikkinchidan, Xorijiy davlatlarda egri soliqlar hissasini oshirish evaziga mahalliy byudjetlar moliyalanadi, mahalliy hududlarda ushbu soliqdan tushadigan

² <http://www.uzdaily.uz/uz/post/5670>



tushum hajmiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Mahalliy hokimiyatlar tashabbusi bilan birlashtirilgan daromadlar ulushi ko'tarilsa, albatta kelgusi yili davlat soliqlaridan ajratmalar foizi kamaytiriladi. Bu holat mahalliy hokimiyatlarning doimiy ravishda birlashtirilgan byudjet daromadlarini 5-10 foizga ko'paytirib borishdagi qiziqishini cheklab qo'yadi va so'ndiradi. Shuning uchun, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar foizi hech bo'lmaganda uch yilga o'zgarmas bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu orqali mahalliy hokimiyatlarning ushbu soliqlardan tushadigan daromadlarni ko'paytirib borishidagi manfaatdorligi oshadi.

Uchinchidan, Davlat tadbirkorligi singari viloyat rahbarlariga bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanish, mahalliy hokimiyat daromadlarini ko'paytirib borish, mahalliy byudjetlarni mustahkamlash bilan bog'liq. Mahalliy byudjetlarning bo'sh pul mablag'larini qisqa muddatlarga bank muassasalariga foyda olish maqsadida depozitlarga joylashtirish va foiz ko'rinishidagi daromadlar olish. Bu byudjetga qo'shimcha mablag'lar tushishini ta'minlashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, mahalliy hokimiyatlarning byudjet muassasalarini mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanish huquqini kengaytirish lozimdir. Bunda byudjet ijrosi davomida foydalanilmay qolingan mablag'larini ularning ixtiyorida qoldirib, ishlatish borasida erkinlikni berish lozim.

Beshinchidan, mahalliy hokimiyatlarga ichki va tashqi bozorda zayyomlashtirish huquqini berish lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida "2021-yil uchun soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi deputatlar hukmiga birinchi o'qishda havola etildi. 2021-yilgi soliq siyosatini takomillashtirish, shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, soliq ma'murchiligi samaradorligini yanada oshirish va byudjetga soliqlarning to'liq tushishini ta'minlashga qaratilgandir³.

Xususan, qonun loyihasi bilan Soliq kodeksi normalarini to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash maqsadida, qat'iy belgilangan miqdorda o'rnatilgan aksiz

³ https://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/32947/?sphrase_id=7745553



solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarini o'rnatish ko'zda tutilgan»⁴. Shu bilan birga, QQS (15%), foyda solig'i (15%, ayrim toifalar uchun 20%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (12%), yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i (2%), qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yer solig'i (0,95%), ijtimoiy soliq (xo'jalik yurituvchi subyektlar - 12% va byudjet tashkilotlari - 25%), aylanmadan olinadigan soliq (bazaviy stavka 4%) stavkalarini saqlab qolish taklif etilmoqda.

O'zbekistondagi turli darajadagi mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlari tahlilini ko'rib chiqamiz.

1-jadval

2023-yil uchun mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlari tahlili⁵

(mlrd.so'm)

№	Hudud nomi	Daromadlar	Xarajatlar
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2352,2	3228,8
2.	Andijon viloyati	1935,4	2375,4
3.	Buxoro viloyati	1212,9	1702,9
4.	Jizzax viloyati	2570,3	4147,6
5.	Qashqadaryo viloyati	1535,8	1535,8
6.	Navoiy viloyati	1970,6	3254,5
7.	Namangan viloyati	2657,0	3759,7
8.	Samarqand viloyati	1754,7	3048,3
9.	Surxondaryo viloyati	745,7	1279,9
10.	Sirdaryo viloyati	3009,8	3009,8
11.	Toshkent viloyati	2904,9	3815,0
12.	Farg'ona viloyati	1442,7	2075,6
13.	Xorazm viloyati	1442,7	2075,6
14.	Toshkent shahri	4068,6	4068,6

⁴ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

⁵ Ma'lumotlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.



	Jami	29774,7	40217,6
--	-------------	----------------	----------------

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2021-yil jami daromadlar 29774,7 mlrd.so‘mni tashkil etgan. Shu o‘rinda xarajatlar esa 40217,6 mlrd.so‘mni tashkil etganligini ko‘rish mumkin. Yuqori ko‘rsatkichlarda Toshkent shaxrining daromad ko‘rsatkichi 4 068,6 mlrd.so‘mni tashkil etmoqda.

Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish maqsadida hududlarda moliya soliq organ vakolatlari kengaytirish bilan birga qo‘yidagilar amalga oshirilmoqda:

1. Mahalliy byudjetlar daromadlar qismini shakllantirish masalalari bo‘yicha moliya bo‘limi rahbarining o‘rinbosari har oyda ishlab chiqarish dinamikasi va tendensiyalariga, hajmlarining o‘zgarishiga, yangi ishlab chiqarish quvvatlari ochilishiga va soliq to‘lovchilarning sonini tanqidiy baholashga asoslangan baholash ko‘rsatkichlari tizimidan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar va majburiy ajratmalar tushumlari prognozining hisob-kitobini amalga oshiradi;

2. Mahalliy byudjetning prognoz parametrlarini ishlab chiqishda moliya bo‘limlari aniqlangan qo‘shimcha tushumlar manbaini, shu jumladan aniqlangan tadbirkorlik subyektlarini, shuningdek tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining ma’lumotlar bazasida hisobga olinmagan soliq solish obyektlarini ham hisobga oladi;

3. Moliya bo‘limi rahbari har chorakda oyma oy taqsimlangan mahalliy byudjet parametrlari prognozini tasdiqlatish uchun tumanlar hokimlariga kiritadi, keyinchalik tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalariga ijro etish uchun yetkazadi;

4. Tumanlar moliya organlari va davlat soliq xizmati organlarining o‘zaro hamkorligi o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlari, mas’ul xodimlar va oyma oy taqsimlangan mahalliy byudjet daromadlari parametrlarining prognozi ilova qilingan o‘zaro hamkorlik natijalari bo‘yicha tayyorlanadigan hujjatlar shakllari belgilangan tuman (shahar) moliya bo‘lim va davlat soliq inspeksiyasining qo‘shma buyrug‘i asosida tashkil etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-589-son qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 30 dekabdagi “O‘zbekiston Respublikasi ning Soliq kodeksi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-599-son Qonuni. “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘RQ-618-son Qonuni. 07.01.2020-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5075-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y. №6 (766)-son.
5. Alimardonov M., Tuxsanov Q. Soliqlar nazariyasi. – T.: “Adabiyot”, 2005. – 209 b.
6. Ataniyazov J.X., Alimardonov E.D. Xalqaro moliya munosabatlari. /Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2014. – 556 b.
7. Jo‘rayev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. – T.: “Fan”, 2004. – 242 b.
8. Soatova N. mahalliy byudjetlar solikli daromad bazalarini mustahkamlash yo‘llari I.f.F.D. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtor. – T., 2020. – 25 b.
9. Xakimov Z.I. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish imkoniyatlari. Tadqiqotlar jahon - ilmiy metodik jurnali, 2024. №38 . – B.3-7.